

IQBOL MIRZO SHE'RLARIDA PRAGMALINGVISTIK BIRLIKLARNING ISHLATILISHI

*O'tamurodova Nafisa Mansurjon qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Iqbol Mirzo she'rlarining badiiy ahamiyati, shoir she'rlarida pragmalingvistik birliklarning mahorat bilan qo'llanilishi, pragmalingvistik iboralarning ma'no-mazmuni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Pragmalingvistika, pragmatizm oqimi, frazeologik birliklar, lug'aviy ma'no.

IKBAL MIRZO'NUN ŞİİRLERİNDE PRAGMALİNGÜSTİK BİRİMLERİN KULLANIMI

*Utamurodova Nafisa Mansurjon kızı,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi*

Özet. Bu makalede İqbol Mirzo'nun şiirlerinin sanatsal değeri, şairin şiirlerinde pragmatik dil birimlerinin ustaca kullanımı ve pragmatik ifadelerin anlam ve içeriği ele alınmaktadır.

Anahtar kelimeler. Pragmatik dilbilim, pragmatizm akımı, deyimsel birimler, sözcüksel anlam.

THE USE OF PRAGMALINGUISTIC UNITS IN THE POEMS OF IKBAL MIRZO

*Utamuratova Nafisa Mansurjon qizi,
student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute*

Annotation. This article discusses the artistic value of Iqbol Mirzo's poems, the skillful use of pragmatic linguistic units in his poetry, and the meaning and content of pragmalinguistic expressions.

Keywords. Pragmatic linguistics, pragmatism movement, phraseological units, lexical meaning

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В СТИХАХ ИКБАЛА МИРЗО

*Утамурадова Нафиса Мансуржон кызы,
студентка Узбекско-Финского педагогического института*

Аннотация. В данной статье рассматривается художественная ценность стихов Икбола Мирзо, мастерское использование прагмалингвистических единиц в его поэзии, а также значение и содержание прагмалингвистических выражений.

Ключевые слова. прагмалингвистика, течение прагматизма, фразеологические единицы, лексическое значение

O'zbek she'riyatining nomdor vakillaridan biri bo'lgan, o'zining alohida uslubi bilan boshqa shoirlardan ajralib turgan ijodkor Iqbol Mirzo ma'nodor, takrorlanmas, mazmunli she'rlari bilan xalqimiz qalbidan joy olgan adib hisoblanadi. Barchamizga ma'lumki badiiy adabiyotda asar yozma shaklda yoki lirik yo'nalishda yozilgan bo'lishidan qat'iy nazar turli badiiy vositalarga, frazeologik, pragmalingvistik birliklarga boy bo'ladi. Iqbol Mirzo ham ijod namunalarida pragmalingvistik birliklardan unumli foydalangandir.

"Pragmatika" (yunoncha pragma – ish-harakat) aslida falsafiy tushuncha bo'lib, u Suqrotidan oldingi davrlarda ham qo'llanishda bo'lgan va keyinchalik uni J.Lokk, E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o'zlashtirganlar. Shu tariqa falsafada pragmatizm oqimi yuzaga kelgan. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri XIX-XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30-yillarida pragmatizm g'oyalarining keng targ'ibi aniq sezila boshladi. Amerika va Yevropada bu targ'ibotning keng yoyilishida Ch.Pirs, R.Karnap, Ch.Morris, L.Vitgenshteyn kabi olimlarning xizmatlarini alohida qayd etmoq kerak. U. Montegyu, P.Stroson kabilar pragmatikaning tadqiqot predmeti sifatida deytik iboralar ("men", "sen", "bu yerda", "u yerda", "hozir", "o'sha paytda" kabilar) mazmunini tavsiflashdan iborat deb qarashadi. Ushbu birliklarning referentini matnsiz aniqlash mushkul ekanligi ma'lum.

Meni yomon ranjitding,

Sendan qattiq xafaman.

Lekin sendek kuydirgi

Qizni qaydan topaman. [25-bet]

"Kuyganyorda yozilgan she'r"dan olingan parchada "kuydirgi qiz" iborasiga ko'zimiz tushishi mumkin, bu pragmalingsvistik birlikning shoir tomonidan nozik shaklda qo'llanilganligiga guvoh bo'lamiz. Quyida ushbu frazemaning tahlilini ko'rib chiqamiz. "Kuydirgi qiz" – bu obrazli ibora bo'lib, odatda hazilkash, o'tkir til bilan gapiradigan, biroz qitiq beradigan yoki odamlarni o'z gaplari bilan "kuydiradigan" qizlarga nisbatan ishlatiladi. Bu ibora ko'pincha quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1. Hazilkash qiz – odamlarni hazil bilan "jazavaga soladigan" yoki ularni kuldira oladigan qiz.

2. O'ziga ishongan qiz – hech narsadan cho'chimaydigan, o'z fikrini ochiq aytadigan qiz.

3. O'tkir til – keskin va ta'sirli gaplar bilan odamlarni "qizdiradigan" qiz. Bu so'z odatda ijobiy yoki hazilomuz ohangda ishlatiladi, ammo ba'zan ozgina kinoya ham bo'lishi mumkin.

Dili qonga to'lib, ko'zlari – yoshga,

Alp Tegin bir hikmat chegirdi toshga:

"Bizning qayg'umiz yo'q boladan boshqa..."

Bolangga bog'lidir o'ylaring, o'zbek. [31-bet].

"O'zbek" she'ridan olingan parchada "dili qonga to'lib" pragmalingsvistik iborasini uchratamiz. "Dili qonga to'lib" – pragmalingsvistik iborasi chuqur g'azab, alam yoki dard bilan to'lgan holatni ifodalaydi. Ushbu ibora majoziy ma'noda ishlatiladi va insonning ichki holatini, ya'ni qattiq ranjigan yoki adolat izlayotgan hissiyatini aks ettiradi. Bundan tashqari biz boshqa yozuvchi va shoirlarimizning asarlarida ham dili qonga to'lib iborasini uchratishimiz mumkin. Misol qilib aytadigan bo'lsak. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida "Kampir Yusufbek hojining so'zlarini eshitib, dili qonga to'ldi. Bunday bexabarlikdan yuragi ezildi. Bu yerda kampirning qayergani, ich-ichidan ezilgani ko'rsatilgan. Alisher Navoiyning g'azalida

Dil nola bilan yonar, jismim qora tutar. Ko'zim yoshi bila daryo, dil qonga to'ldi. Bu mislarda qalb iztirobi, ichki dard alam tasvirlangan. Yoki bo'lsa Oybekning "Navoiy" romanida Ustod Navoiy Husayn Boyqaroning nohaqligini ko'rib dili qonga to'lib, unga tanbeh berish uchun yo'l oldi. Bu misolda Navoiyning yuragi g'am va alamga to'lganini ko'rish mumkin. Pragmalingsvistik jihatdan, bu ibora ko'pincha shikoyat, nolish yoki qattiq norozilikni ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, agar kimdir og'ir xiyonatga uchragan yoki katta adolatsizlikka duch kelgan bo'lsa, u "Dilim qonga to'ldi" deb aytishi mumkin.

Qoshlaring kamon deymi,

Yuragim nishon deymi,

Kipriging paykon deymi,

Jigar-bag'rim qon deymi,

Ko'zlaring cholpon deymi, [33-bet].

"So'roq" she'ridan olingan ushbu parchada esa "jigar-bag'rim qon" va "ko'zlaring cho'lpon" iboralariga ahamiyat beradigan bo'lsak bu iboralar yorning go'zal ekanligini tasvirlash

uchun shoir nozik did ila soʻz tanlagan degan fikrga kelamiz. "Jigar-bagʻrim qon" pragmalingsvistik iborasi insonning chuqur iztirob, qaygʻu yoki alam chekayotganini ifodalaydi. Bu ibora majoziy maʼnoda ishlatiladi va ogʻir ruhiy yoki jismoniy azobni anglatadi. "Koʻzlaring choʻlpon" iborasi goʻzallik, umid yoki nur taratuvchi koʻzlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu ibora majoziy maʼnoga ega boʻlib, odatda insonning koʻzlarining jozibadorligi, porlashi yoki ilhomlantiruvchi taʼsirini taʼriflash uchun qoʻllanadi. Koʻrib turganingizdek bizning tilimiz badiiy tasvir soʻzlarga boy oʻzgacha til hisoblanadi. Pragmalingsvistik birliklarning rang -barangligi, oʻziga xosligi esa necha yillardan buyon olim va professorlarning eʼtiborini tortib, ilmiy izlanishlar olib borishga majbur qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Iqbol Mirzo "Sizni kuylayman" Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – Toshkent. 2007.
2. Maxamadaliyevna Y. D., Oʻljayevna Oʻ. F., Shavkatovna T. D. T., Anvarovna, A. O. (2020). Pedagogical Features Of Mental Development Of Preschool Children. Solid State Technology, 63(6), 14221-14225.
3. Shavkatovna, S. R. (2021). Developing Critical Thinking In Primary School Students. Conferencea, 97-102.
4. Usmonova, D. S., & Xojiakbarova, R. A. (2023). Tasviriy sanʼatga oid atamalarning morfologik xususiyatlari tahlili. Solution of social problems in management and economy, 2(6), 5-6.